

## **Sog‘liqni muhofaza qilish va xavfsiz mehnatni ta’minlash sohasidagi SIYOSAT**

«Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublikasida mis, rux, kadmiy, mis katankasi, mis quvurlar, sulfat kislotasi, mis kuporosi, qattiq qotishmali mahsulotlar, portlandsement, noyob va nodir metallar ishlab chiqaruvchi eng yirik korxonaga bo‘lib, Kombinat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini barqaror rivojlantirish va mineral xom-ashyo bazasini kengaytirish, shu bilan birga, xodimlarning mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish holatini takomillashtirish, shaxs va jamiyat hayotiy muhim manfaatlarini Kombinatning ishlab chiqarish ob‘ektlaridagi avariya va noxush hodisalardan hamda ularning oqibatlaridan himoyalanganligini ta’minlash borasida doimiy ravishda ish olib boradi.

### **Kombinatning vazifa va qadriyatlari:**

Kombinatning vazifasi – ishlab chiqarish faoliyatiga nisbatdan xodimning hayoti va sog‘ligi ustuvorligini ta’minlashdir, chunki Kombinatning asosiy qadriyati - bu uning xodimlari.

### **Kombinatning tamoillari:**

«Olmaliq KMK» AJ o‘z faoliyatda quyidagi tamoillarga amal qiladi:

- xatar va imkoniyatlar tahlilining zamonaviy usullariga asoslangan tizimli va kompleks yondashuvni qo‘llash;
- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirish;
- ishlab chiqarishga xavfsiz texnika, xodimlarni himoya qiluvchi texnologiya va vositalarning joriy etilishini rag‘batlantirish;
- mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha fan va texnika yutuqlari hamda ilg‘or milliy va xorijiy tajribadan foydalanish;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish;
- xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;
- mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha kombinat xodimlarining tayyorgarlikdan va attestatsiyadan o‘tkazilishini ta’minlash;
- kombinat xodimlarining hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish choralarini amalga oshirish.

### **Kombinatning maqsadlari:**

Xodimlarning, shuningdek Kombinat hududida joylashgan va ishlarni bajarayotgan boshqa tashkilotlar xodimlarining sog‘ligi va mehnat qobiliyatiga salbiy ta’sirni kamaytirish, avariya va boshqa ko‘zda tutilmagan favqulodda vaziyatlar ro‘y berish xavfini minimallashtirish, bunday oqibatlarning ishlab

chiqarish band bo'lgan xodimlarining sog'ligi va mehnat qobiliyatiga ta'sirini yumshatish Kombinatning maqsadlaridir.

### **Kombinatning majburiyatlari:**

«Olmaliq KMK» AJning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilikning amaldagi talablariga, shuningdek manfaatdor tomonlar oldidagi majburiyatlarimizga rioya qilish;
- ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olishga qaratilgan xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini ta'minlash;
- ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq xavflarni bartaraf etish va xatarlarni kamaytirish, jarohalanishlar va kasalliklarning oldini olish;
- Sog'liqni muhofaza qilish va xavfsiz mehnatni ta'minlash menejmenti tizimining samaradorligi ta'minlash va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish;
- xodimlar kasaba uyushmalari kengashi va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi xodimlarning fikr va takliflarini o'rganish va zarur choralarni amalga oshirish;
- ishlab chiqarish va kasbiy xatarlarni majburiy ravishda hisobga olib, ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish;
- xodimlarini xavfsiz mehnat uslublariga o'rgatish, ularni ish joylarida xavfsiz hulq-atvorda bo'lishini rag'batlantirish, samarali va sifatli shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash;
- ishlab chiqarish obyektlarida xizmat ko'rsatuvchi pudrat va subpudrat korxonalaridan mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi standartlar va me'yorlar talablariga rioya etishini talab qilish.